

---

## **“Qoziahror” mahallasining yoshlaridan iborat jamoa tuman chempioni!**

Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishiga, xususan, sportning mini-futbol va futbol turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, iqtidorli sportchilarni erta aniqlash maqsadida start olgan Davlat xavfsizlik xizmati kubogi uchun mini futbol bo'yicha Rishton tuman birinchiligining final bahsi bo'lib o'tdi. Final o'yinida oldingi bosqichlarda muvaffaqiyat qozongan “Qoziahror” va “Mevazor” mahallalaridagi yoshlardan iborat jamoalar to'p surdilar. Murosasiz bahslarda “Qoziahror” mahallasining yoshlari 4:2 hisobida g'alaba qozonishdi va tuman chempioni sifatida musobaqaning viloyat bosqichiga yo'llanma oldi. Bugun «Markaziy» o'yingohda katta futbol bo'yicha DXX kubogi final uchrashuvi o'tkaziladi. Unda «Buston» va «Guliston» MFY jamoalari maydonga tushishadi. Futbol muxlislarini stadiongacha chorlab qolamiz. Uchrashuv soat 16:00da start oladi.

**Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2022-05-27 14:07:08